

XOLID HUSAYNIY ASARLARINING BADIY O'ZIGA XOSLIGI*Mexmonova Nigina Faxritdinovna**Turkiston yangi Innovatsiyalar universiteti magistranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xolid Husayniy asarlari tematikasida adabiy mavzular bilan parallel ravishda hayotiy-tarixiy mavzular ham o'rin olganligi, lekin barcha romanlarining umumiy mavzusi Afg'oniston sifatida talqin etilishida yozuvchi uslubining o'ziga xosligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Oila perspektivi, ilmiy-nazariy qarashlar, ayol konsepsiyasi, avg'on-amerika adabiyoti, milliy meros, feministik yondashuv, oila perspektivasi.

Xolid Husayniy asarlarida diaspora an'analari asosida tarix haqiqatini badiiyat hosilasiga aylantirish, yozuvchining obrazli tafakkuri asosida Afg'onistondagi ijtimoiy hayot tarzini haqqoniy ifodasi adabiy-estetik kashf etilishiga doir ilmiy-nazariy qarashlar tahlili asosida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Madaniy-ma'rifiy muassasalar va nomoddiy milliy merosni rivojlantirish sho'basidan o'zbek xalqining boy milliy til an'analari, nomoddiy madaniy merosi, ijtimoiy qadriyatlarimizning millatlararo munosabatlarni yo'lga qo'yish va aloqalarni mustahkamlash borasida tuzilgan "Mamlakatimizda millatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish va uyg'unlashtirish"ga doir uslubiy ko'rsatmalarni tayyorlashda foydalanilgan. Ilmiy natijalarning qo'llanilishi orqali Afg'on-Amerika adabiyotining o'zbek adabiyotshunosligida keng qamrovli o'rganilishi va uning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilishiga erishilgan;

Afg'on-amerika adabiyotida yozuvchi romanlari mavzusi yurt, bolalik, ayollik va oila perspektivalariga ajratilib, urushdan oldingi, urush va urushdan so'nggi davrlarda xalqning ijtimoiy turmush tarsi, oila-ayol-bola konsepsiyalarining adabiy-estetik, ijtimoiy-estetik tamoyillarini ochib berishi haqidagi ma'lumotlardan "O'zbekiston tarixi" telekanali "Xayrli kun" ko'rsatuvining "Jahon adabiyotida didaktika" mavzusiga bag'ishlangan sonini tayyorlashda foydalanilgan. Natijada o'zbek adiblari va afg'on-amerika yozuvchisi Xolid Husayniy ijodidagi mushtaraklik va o'ziga xoslikni qiyosiy-tipologik tahlil etish imkoniyatini bergan.

Husayniy asarlarida fors adabiyotining ta'siri o'laroq kinoya, satira va sarkazm qo'llanilgan. Afg'onistonning tinch, osuda paytlarini qo'msash yaqqol seziladi va jabrlangan afg'onlarda umid uchqunlarini paydo qiladi.

Afg'on diasporasidagi ijodkorlar asarlarida to'rt asosiy mavzu yetakchilik qiladi:

- 1) Afg'onistonni qo'msash;
- 2) Afg'onistondagi urush va notinchlik;
- 3) Afg'onistondagi o'z ixtiyori bilan chiqib ketish yoki quvg'in qilinish;
- 4) Afg'onistonga-vatanga qaytish.

Yozuvchi “Shamol ortidan yugurib” romanida “aybdorlik, do’stlik, bolalik, muhabbat” kabi mangu mavzular bilan parallel “Afg’oniston va u yerdagi notinchlik oqibatlari” ga murojaat etadi. Do’stlik mavzusi yozuvchi tomonidan antitezalar asosida aks ettirilgan. Bobo va Amir oliy nasab pashtunlar, Hasan quyi tabaqa hazoriylarga mansub bo’lib, ular o’rtasida nainki do’stlik, hatto ijobiy munosabatlarning mavjud bo’lishi o’sha tarixiy davrning inqilobi edi. Amir ham ko’pchilik orasida Hasanga bo’lgan munosabatlarini ko’rsatishni lozim topmaydi, chunki jamiyat uni “oliynasab” vakil sifatida “tarbiyalangan”. “...negadir Hasanni o’zimga do’st deb bilmasdim. Uni o’zimdanda pastroq ko’rardim. Biroq, bolaligidan Hasandan boshqa yaqinroq kishim yo’q edi”, deya iqrora bo’ladi Amir.

Husayniyning feministik ruxda yozilgan “Ming quyosh shu’lasi” romanida “ayollar, muhabbat, nikoh, qurbonlik, ona yurtga qaytish” kabi mangu mavzular bilan birgalikda “Shamol ortidan yugurib” romanidagidek “Afg’oniston va u yerda hukm surayotgan mash’um urush” kabi tarixiy mavzularga ham urg’u beriladi. Muhabbat garchi asar boshida Tarik va Layloning bolalikdagi yaqinliklari natijasida uyg’ongan samimiy rishtalar ko’rinishida aks etsada, voqealar rivojida bu yuksak tuyg’u sadoqat, bir-birini tushunish va avaylash kabi insoniy munosabatlar bilan qorishiq tasvirlanadi. Qurbonlik mavzusi asarning kulminasion nuqtasida aks ettiriladi, Maryam o’z hayotini kundoshi Laylo va uning bolalari uchun qurbon qiladi. Maryam Rashidni o’ldirar ekan, aynan o’sha jinoyat Laylolarining jaholatdan qutilishiga yagona yechim sifatida qabul qilinadi. Zo’ravonlik hukm surgan muhitdan yo o’lib, yo o’ldirib qutulish fikri yozuvchi iqrornomasiga aylanadi. Afg’onistonda tolibonlar davrida bir bo’lak non o’g’irlagan odamning qo’lini kesishardi, shundan xulosa qilgan Maryam erini o’ldirib qochgan ikki ayolning boshiga ne ko’ylar tushishini anglab, hamma aybni o’z bo’yniga olishni, Laylolarini qochirib yuborishni afzal ko’radi. Maryam o’z qarorini shunday e’lon qiladi: “Men shu yerda qolaman. Men uchun endi hech narsaning keragi yo’q. Bolaligidan nima orzu qilgan bo’lsam, hammasini sen menga berolding. Sen bilan, sening bolalaring bilan men o’zimni baxtiyor his etdim. Bor gap shu Laylojon!”. Maryam so’nggi nafasi oldidan barini esladi: onasi bilan yashagan kulbasini, otasi Jalilni, Layloni, Azizani..... Butun hayoti bir lahzada birma-bir ko’z o’ngidan o’tdi, lekin achinmadi. “Hammasi bundan-da battaroq bo’lishi mumkin edi. Umr behuda o’tmadi-ku!”

Husayniyning “Tog’lar ham sado beradi” romanining to’qqiz bobida yigirmadan ortiq oilalar tasviri keltirilgan. Har birini syujet liniyasi jihatidan bir-biridan farqlansa-da, oila konsepti doirasida birlashadi. Yozuvchi tizimli ravishda, xuddi matematika hisob-kitoblarga asoslangandek taassurot qoldiradigan darajada asar kompozitsiyasini shakllantirgan. Unutish va unitilish romanning har bir bobida kuzatilib, Husayniy birinchi, ikkinchi va uchinchi boblardagi bosh qahramonlarning unutilishini bob xotimasi sifatida beradi. Birinchi bobda ertakdagi Ayub boboning devga berilgan sevimli kenjatoy o’g’li Qaysni oila a’zolari ham, qishloq aholisi ham unutadi. Ikkinchi bobda farzandsiz, ammo badavlat Vahdatilar xonadoniga sotilgan jajji qizaloq Pari o’z oilasini, ota va akasini unutadi. Uni ham hech kim so’roqlamaydi. Go’yo ular hayotida Pari

bo'lmagandek. Uchinchi bobda bo'lsa, aqlda va husnda tengsiz Ma'suma baxtsiz tasodif sabab bir umrga nogiron bo'lib qoladi. Hech bir yumushga yaramaydigan Ma'suma o'zini keraksiz va ortiqcha his qilib, Parvonadan uni kimsasiz cho'lga tashlab kelishini talab qiladi. Mazkur bob qishloq aholisi Ma'sumaning yo'qligiga umuman ahamiyat berishmagani bilan nihoyalanadi, Ma'suma unutiladi. Unutish va unitilish roman psixologizmining cho'qqisi sifatida tasvirlangan, ertakdagi Ayub boboga o'g'lini eslab qiynamasligi uchun dev tomonidan sehrli suyuqlik berilgan bo'lsa, Abdulloga taqdirning o'zi cheksiz iztiroblardan qutulishi uchun kamdan-kam uchraydigan, xotirasini yo'qotish bilan bog'liq alsgeymer hastaligini taqdim etadi. Abdullo singlisini eslab qiynalishdan qutuladi.

Yozuvchining badiiy haqiqati shuni ko'rsatadiki, diasporadagi hayot insonni o'zi istamasa-da, unga meros bo'lgan madaniyatdan uzoqlashtiradi va undan-da achinarlisi o'zligini unutishga olib keladi. "Qay bir kechada biroz shirakayf bo'lib kelgan Shamelard ismli bir professor Paridan sovetlar Afg'onistondan chiqib ketsalar, nima bo'ladi deb o'ylaysiz, deya so'radi....-Bilmadim,-dedi Pari. Ochig'ini aytganda, men faqat nomigagina afg'onman, xolos". Romanda yigirmadan ortiq oilalar taqdiri hikoyalar kesimida ochib beriladi. Roman voqealarining asosiy maqsadi ota-o'g'il, ona-qiz, aka-singil, opa-singil va aka-ukalar misolasida oila qadriyatlarini Yevropa va Osiyo misolida tasvirlashdan iborat. Xolid Husayniy mazkur vazifani diaspora adabiyoti xususiyatlari asosida ko'rsatib berdi. Asardagi to'qqiz bobning har biri alohida syujet va qahramonlariga ega hikoyalar bo'lib, Husayniy shaxs-oila-jamiat an'analari asosida personajlarini romanga kiritadi. Yozuvchining badiiy haqiqati hayot haqiqati bilan parallel bo'lib, inson o'z oila a'zolarini tanlash huquqiga ega emas. Muallif yaratgan oila konseptiga ko'ra, faqatgina qondoshlik rishtalariga asoslangan munosabatlar emas, balki bir uyda yashash, bir-biriga g'amxo'rlik qilish ham oilaning ayni xususiyatlaridan biridir.

Xolid Husayniy asarlarida afg'on-amerika adabiyotidagi umumiy mavzular yetakchilik qilish muallif asarlari tematikasini mangu va hayotiy-tarixiy mavzularga ajratish imkoniyatini beradi. "Shamol ortidan yugurib" romanida asosiy mavzu "bolalar va bolalik" bo'lib, "aybdorlik, do'stlik, bolalik, muhabbat" kabi mangu mavzular bilan bir qatorda "Afg'onistondagi notinchlik, urush va uning oqibatlarini" kabi tarixiy mavzularga ham murojaat etiladi. Feministik yondashuvlar asosida yozilgan "Ming quyosh shu'lasini" romanida asosiy mavzu "ayollar va ayollik" bo'lib, "ayollar, muhabbat, nikoh" kabi mangu mavzular bilan parallelik kasb etgan. Yozuvchining oila perspektivasi yetakchilik qiluvchi "Tog'lar ham sado beradi" romanida "oila" mavzusi bilan birgalikda "qurbonlik, qaytish" kabi mangu mavzular ham yoritilgan.

Diaspora adabiyotining uch asosiy xususiyati Husayniy asarlarida aniqlanib, biografik metod tamoyillari "Shamol ortidan yugurib" romanida, makon va zamon muammosi "Ming quyosh shu'lasini"da, tillar va madaniyatlararo to'qnashuv "Tog'lar ham sado beradi" asarida yetakchilik qiladi, biroq mazkur xususiyatlarning mushtarak ifodasi yozuvchi uslubining individual o'ziga xosligini ta'min etgan.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xolid Husayniyning “Ming quyosh shu’lasi” romanidagi mavzular.
2. Ro’zmatova D.R Jahon adabiyotshunosligida afg’on ayollari mavzusi// So’z san’ati.-Toshkent. №1/2020.(10.00.00; №31)
3. “The Kite Runner” by Khaled Hosseini// International Journal of Progressive Sciences and Technologies. –Spain. Vol. 11, №1/2018. – P.31-34. (№23, SJIF:3,9)
4. Perspectives in the Novels by Khaled Hosseini// RumeliDE Journal of Language and Literature Studies. –Turkey. №6/2019. – P. 320-321. (№12, ICV:69.60)
5. Iste’dod – badiiylikning bosh mezon// O’zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar mavzusidagi konferensiya materiallari – Toshkent. №17/2020. –B. 133-135.